

## STENDAL ASARLARIDA AYOLLAR OBRAZINING IFODALANISHI “QIZIL VA QORA” ASARI MISOLIDA

Istamova Gulnoza Ismat qizi

Buxoro davlat Universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish (fransuz tili) yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6902786>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ayol- tabiatning oliy xilqati. Ayol- oilalar tirgagi, hayotimiz ustuni. Ayol-ona, ayol-uy bekasi, ayol-rahbar, ayol-ustoz. Ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko'rsatish har bir millatga xos bo'lgan eng asosiy jihatlardan biridir Stendal asarlarida ham ayollar obrazining ifodalanishi “Qizil va qora” asari misolida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ehtiros - ruhiy turtki, axloqiy tashnalik, cheksiz, hisobsiz joziba, shuhratparastlik - mansabga, shon-shuhratga, e'tirofga chanqoqlik, Ayol-ona, ayol-uy bekasi, ayol-rahbar, ayol-ustoz.

### ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ СТЕНДАЛЯ НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КРАСНОЕ И ЧЕРНОЕ»

**Аннотация.** В этой статье представляется, что Женщина - высшая форма природы. Женщина – это основа семьи, опора нашей жизни. Женщина-мать, женщина-домохозяйка, женщина-лидер, женщина-учитель. Признание женщины священной и особое уважение к ней - один из важнейших аспектов, характерных для каждого народа, также образ женщины в произведениях Стендаля на примере произведения "Красное и черное".

**Ключевые слова:** страсть - духовный порыв, нравственная жажда, безграничное, неисчислимое влечение, честолюбие - жажда карьеры, славы, признания, Женщина-мать, женщина-домохозяйка, женщина-лидер, женщина-учитель.

### REPRESENTATION OF THE IMAGE OF A WOMAN IN THE WORKS OF STENDHAL ON THE EXAMPLE OF THE WORK "RED AND BLACK"

**Abstract.** In this article, it appears that Woman is the highest form of nature. A woman is the foundation of the family, the backbone of our life. Mother woman, housewife woman, leader woman, teacher woman. Recognition of a woman as sacred and special respect for her is one of the most important aspects characteristic of every nation, as well as the image of a woman in the works of Stendhal on the example of the work "Red and Black".

**Keywords:** passion - spiritual impulse, moral thirst, boundless, incalculable attraction, ambition - thirst for career, fame, recognition, mother woman, housewife woman, leader woman, teacher woman.

### KIRISH

Badiiy obraz borliqning badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Badiiy obraz o'zida aql va hisni uyg'un birlashtiradiki, shu bois uni ratsional va emotsional birlik sifatida tushuniladi. Badiiy obrazdagi ratsional jihat shundaki, uning yordamida ijodkor o'zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi. Masalan, jahon adabiyoti vakili Stendal asarlarida ayollar obrazining ifodalanishi. “Qizil va qora” asari obrazlarning real tasviri yozuvchi mahorati tufayli yuksak badiiylik kashf etgan. Negaki, asarning saviyasi, uning

ta'sir qilish kuchi juda ham kuchli. Romanni mutolaa qilgan kishi o'sha davr muhitiga, urushlar girdobiga tushib qoladi.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Ayol- tabiatning oliy xilqati. Ayol- oilalar tirgagi, hayotimiz ustuni. Ayol-ona, ayol-uy bekasi, ayol-rahbar, ayol-ustoz. Ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko'rsatish har bir millatga xos bo'lgan eng asosiy jihatlardan biridir. Lekin taassufki, ayrim davrlarda ayol sha'ni va qadrining oyoqosti qilinishi holatlarini ham ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, O'rta asrlar ayollar uchun juda ham og'ir bo'lgan. Yevropada qiz bolani har qanday o'tkinchi yo'lovchi joduda ayblashi mumkin edi. XIV asrdan XVIII asrgacha bo'lgan davrda Evropada "jodugar"likda ayblanib taxminan 40-50 mingta inson olovda yoqib yuborilgan. Ularning ko'pchiligini esa xotin-qizlar tashkil qilgan. 1613 yili Niderlandiyada mashhur Rumor sudi bo'lib o'tdi va unda butun Evropada misli ko'rilmagan darajada ko'proq "jodugar"lar yoqib yuborildi. Birinchi bo'lib gulxanga yangi tug'ilgan chaqaloqlarni la'natlashda ayiblangan doya ayol Entyen Djillis tashlangan va shunga o'xshash bir qancha yolg'on ayblovlar bilan jami 63 nafar ayol olovda yondirildi. Bundan tashqari johiliya davrida ham ayollarga nisbatan g'oyatda yomon munosabatda bo'lingan. Yangi tug'ilgan qiz farzandlar tiriklayin ko'milgan. Ayollarning hech qanday huquq va erkinliklari bo'lmagan, ularga past nazar bilan qaralgan.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Stendalning "Qizil va qora" romani 1830-yilda nashr etilgan. Asar voqealari 1820-yillarda Fransiyada bo'lib o'tadi. Ushbu roman XIX asrning so'nggi choragida psixologik realizmning ilk namunasi sifatida tanilgan. Fransiyadagi Veyer deb nomlangan shaharchaning meri janob de Renal uyiga Julyen Sorel ismli yigitni ishga oladi. U o'ta ketgan shuhratparast inson edi. Dinshunoslikni o'rganadi, Injil sahifalarini yoddan o'qiydi. Julyenning muomalasi va xush xulqi janob de Renalnikidan farq qilardi va shu sababli de Renal xonim yosh yigitchaga e'tibor bilan qaray boshlaydi, vaqtlar o'tib Julyenni sevib qoladi. Ammo xonim taqvodor edi, u doim vijdon azobida yashaydi. Julyen va de Renal xonim o'rtasidagi munosabatlar haqida noma'lum xat olgan janob de Renal yigitchani uydan uzoqlashtiradi...

Orada Julyen Bezansondagi diniy seminariyada tahsil oladi. Biroz o'tib markiz de La Molga kotib bo'lib ishga o'tadi. Julyendagi mehnatkashlik va tirishqoqlikni ko'rgan de La Mol unga murakkab vazifalarni ham ishonib topshira boshlaydi. Bu xonadonda yigit markizning qizi dunyoviy jamiyatda yashashni istaydigan Matilda bilan uchrashadi. Qizning mag'rurligini Julyenning befarqligi yengib chiqadi va Matilda unga oshiq bo'lib qoladi. Qiz turmushga chiqishni istayotgani haqida xabar beradi. Biroq Julyenning yorqin rejalarini madam de Renaldan kelgan bir xat parchalab yuboradi. Xatning qisqacha mazmuni: "Bu yigit muvaffaqiyatga erishish uchun ojiz ayol sevgisidan foydalanadi", - talqinida edi. Julyen o'ch olish uchun de Renal xonimning oldiga yo'l oladi, cherkovda sobiq sevgilisini otadi. Madam de Renal o'lmay qoladi. Asarning eng og'riqli nuqtasi bu - sevgi. Qahramonlar sevgisi uchun jon fido etishga tayyor. Julyenning haqiqiy qiyofasi shakllanishida ular bevosita rol o'ynashadi. Jamiyatning qabih bosimi yigitga berilgan barcha qobiliyatlarni birma-bir yo'q qildi. U dunyoning haqiqiy qiyofasini ko'rmaguncha faqatgina ruhan Xudoga intilgan, aqlan notinchlik unga hech qachon tinchlik bermagan. Stendal jamiyatning chiriganligini, butun tizimning qanchalik buzilganini mahorat bilan tasvirlaydi, lekin eng yomoni bularning bari asrlar o'tsada o'zgarmagan.

### **MUHOKAMA**

Muallif asarni bejiz "Qizil va qora" deb nomlamagan. Qizil - bu shijoatli yoshlik, oliy maqsadga erishish istagi, jo'shqin qon ramzi. Qora - shu maqsadga yetish uchun oson yo'l, hiylanayrang bilan erishiladigan cho'qqi. Asar mutolaasi davomida hammamiz shu ikki yo'ldan birini tanlaymiz va bu kelgusi hayotimizga ham daxl qilmay qolmaydi. Hamma narsa foydaga hal bo'layotgan bir paytda Julyenning burjua jamiyatini yomonlab so'zlagan nutqi tufayli uni o'limga mahkum etishadi. Qamoqda Julyen de Renal xonim bilan yarashadi, tavba qiladi. Umri davomida faqatgina shu insonni sevganini anglab yetadi. Yigit bu hayotda o'zi istagan barcha narsaga erishganini va o'lim ularning hammasiga nuqta qo'yajagini aytadi. Julyenning o'limidan uch kun o'tib de Renal xonim ham vafot etadi. Asar muallif vafotidan so'ng yangi asr avlodlari ongida qayta uyg'ondi. Kitobda o'sha davr Fransiya aholisi aks etgan bo'lib, unda hech kim o'zini ko'rishni istamagan. Ha, asar sahifalariga shafqatsiz haqiqat bitilgan, bosh qahramonning hissiy notinchliklari, otashin tuyg'ulari va ichki mojarolarini ko'rib, tushunish juda qiyin.

### XULOSA

"Qizil va qora" romanining ma'nosi haqidagi ko'plab taxminlar orasida Stendhal ikki tuyg'uni yashirin ranglar ostida yashirgan, g'azablangan va Julien Sorel ruhiga ega bo'lgan versiyani topish mumkin. Ehtiros - ruhiy turtki, axloqiy tashnalik, cheksiz, hisobsiz joziba va shuhratparastlik - mansabga, shon-shuhratga, e'tirofga chanqoqlik, maqsadga intilishda axloqiy ishonchdan kelib chiqmagan harakat - bu ikki tuyg'u Julienda kurashgan va har birida bor edi. uning ruhiga egalik qilish huquqi. Muallif qahramonni ikki qismga, ikkita Julienga ajratdi: ehtirosli va shuhratparast. Va ikkalasi ham o'z maqsadlariga erishdilar: tabiiy his-tuyg'ularga moyil bo'lgan Jülyen, ochiq fikr bilan, xonim de Renalning sevgisiga erishdi va baxtli edi; boshqa holatda, ambitsiya va xotirjamlik Julienga Matilda va uning dunyodagi mavqeini zabt etishga yordam berdi. Ammo Julien bundan xursand bo'lmadi.

### REFERENCES

1. Reizov B.G. "Stendal: badiiy ijod". "Badiiy adabiyot". L., 1978 yil
2. Stendal "Qizil va qora". "Haqiqat". M., 1959 yil.
3. Timasheva O.V. Stendal. M. 1983 yil
4. Frid J. "Stendal: hayot va ishning konturi". "Badiiy adabiyot". M., 1967 yil
5. Esenbayeva R.M. Stendal va Dostoevskiy: "Qizil va qora", "Jinoyat va jazo" romanlarining tipologiyasi. Tver, 1991 yil